



# Buxoro viloyatida qurilish ishlari


2019 yil  
yanvar-mart



**Hududlar kesimida qurilish ishlari, mlrd. so'mda**



**Hududlar kesimida qurilish ishlari, foizda**



Joriy yilning yanvar-mart oylarida Buxoro viloyatida o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 604,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish surati 131,3 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 124,9 mlrd. so'mni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 280,1 mlrd. so'mni hamda norasmiy sektor bo'yicha 199,3 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Mos ravishda yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 104,1% ni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 104,7% ni va norasmiy sektor bo'yicha o'sish sur'ati 288,1 %ni tashkil etdi.

### 2019 yil yanvar-mart oylarida korxonalar va tashkilotlarning turi bo'yicha qurilish ishlari tarkibi, jamiga nisbatan %da



● 2019 yil yanvar-mart  
● 2018 yil yanvar-mart

Yirik qurilish tashkilotlari



● 2019 yil yanvar-mart  
● 2018 yil yanvar-mart

Kichik korxonalar va mikrofirmalar



● 2019 yil yanvar-mart  
● 2018 yil yanvar-mart


Norasmiy sektor

O'tgan yilning mos davriga nisbatan jami qurilish ishlarining hajmida yirik korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,7 foizga, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi 12,6 foizga kamaygan, norasmiy sektor ulushi esa 18,4 foizga ko'paygan.

## Umumiy hajmda qurilish ishlarining turi bo'yicha taqsimoti


**2019 yil yanvar-mart**

(jamiga nisbatan foizda)



**2018 yil yanvar-mart**

(jamiga nisbatan foizda)




2019 yilning yanvar-mart oylarida qurilish ishlarning umumiy hajmidan 65,0 foizi yoki 393,1 mlrd. soʻm - yangi qurilish, rekonstruksiya, kentgaytirish va texnik qayta qurollantirishga (oʻtgan yilning mos davrida 56,2 foiz yoki 244,2 mlrd. soʻm), 35,0 foizi yoki 211,2 mlrd. soʻm (oʻtgan yilning mos davrida 43,8 foizi yoki 190,2 mlrd. soʻm) - kapital ta'mirlash, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlariga toʻgʻri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ijtimoiy soha ob'ektlarini (maktablar, kollejlilar, sport hamda sogʻliqni saqlash ob'ektlar va boshqalar) qurishda, namunali hamda arzonlashtirilgan va sotish uchun moʻljallangan turar joylarni qurishda, avtomobil yoʻllarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash ishlarida qatnashmoqda.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha qurilish ishlari hajmi**

Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha bino va ishootlarni qurilishiga 380,3 mlrd. soʻm, qurilish ishlarining umumiy hajmga ulushi 62,9 foizni (oʻtgan yilning mos davrida 220,9 mlrd. soʻm, umumiy hajmga nisbatan ulushi 50,8 foiz) fuqarolik ob'ektlarini qurilishiga 89,4 mlrd. soʻm, umumiy hajmga nisbatan ulushi 14,8 foizni (oʻtgan yilning mos davrida 85,2 mlrd. soʻm, umumiy hajmga nisbatan ulushi 19,6 foiz) va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi 134,6 mlrd. soʻm, umumiy hajmga nisbatan ulushi 22,3 foizni (oʻtgan yilning mos davrida 128,4 mlrd. soʻm, umumiy hajmga nisbatan ulushi 29,6 foiz) tashkil qildi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 12,1 % punktga ko'paydi.

Fuqarolik qurilishi ob'yektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,8 % punktga kamaydi.


Ixtisoslashtirilgan kurilish ishlari hajmi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 7,3% punktga kamaydi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmining tarkibi

**2019 yil yanvar-mart**  
jamiga nisbatan foizda



**2018 yil yanvar-mart**  
jamiga nisbatan foizda



### Mulkchilik shakli bo'yicha qurilish ishlari

	2019 yil yanvar-mart, mlrd. so'm	2018 yil yanvar-mart, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, foizda
<b>Jami mulkchilik shakli bo'yicha</b>	<b>604,3</b>	<b>434,4</b>	<b>131,3</b>
<b>Davlat</b>	31,0	21,5	138,1
<b>Nodavlat</b>	573,3	412,9	131,0

Davlat mulkchilik shakli tomonidan 31,0 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan, o'tgan yilga nisbatan o'sish foizi 138,1 foizni tashkil qilgan. Umumiy hajmga nisbatan ulushi 5,1 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 foizga ko'paygan.

Nodavlat mulkchiligi bilan qurilish korxonalarini tomonidan 573,3 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan, o'tgan yilga nisbatan o'sish foizi 131,0 foizni tashkil qilgan. Umumiy hajmga nisbatan ulushi 94,9 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 foizga kamaygan.




**2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari,  
mlrd. so'mda**

	<b>2019 yil yanvar- mart</b>	<b>2018 yil yanvar- mart</b>	<b>O'sish sur'ati, %da</b>
<b>Jami</b>	<b>604,3</b>	<b>434,4</b>	<b>131,3</b>
<b>Buxoro sh</b>	132,3	88,7	140,5
<b>Kogon sh</b>	19,0	16,6	108,7
<b>Olot</b>	58,9	38,6	144,5
<b>Buxoro</b>	42,8	22,7	176,8
<b>Vobkent</b>	14,9	14	101,9
<b>G'ijduvon</b>	69,9	54,2	121,1
<b>Kogon</b>	28,5	31,6	85,8
<b>Qorako'l</b>	21,2	15,2	131,7
<b>Qorovulbozor</b>	56,7	64,8	83,8
<b>Peshko'</b>	36,3	14	241,9
<b>Romitan</b>	53,5	24,4	207,7
<b>Jondor</b>	35,2	32,7	101,1
<b>Shofirkon</b>	35,2	16,9	194,3


Viloyatda qurilish ishlari hajmida eng yuqori o'rinni Buxoro shahri egalladi. Bajarilgan qurilish ishlari hajmi 132,3 mlrd. so'm, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 140,5 %ni tashkil qildi. Keyingi o'rinni G'ijduvon tumani egalladi. Mazkur tumanda qurilish ishlari 69,9 mlrd. so'mni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,1 %ni tashkil qildi.

## 2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari, foizda



Joriy yilning yanvar-mart oylarida yuqori o'sish sur'atida 241,9 % bilan Peshko' tumani yetakchilik qilmoqda. Keyingi o'rinni Romitan tumani egallab, o'sish sur'ati 207,7 %ni tashkil qildi. Shofirkon tumani esa 194,3 % bilan uchlikni yakunladi.

### 2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qurilish ishlarining ulushi, foizda



Qurilish ishlari umumiy hajmida 21,9 % ulush bilan Buxoro shahri yetakchilikni egalladi. Keyingi pog'onani 11,6 % ulush bilan G'ijduvon tumani egalladi.

**Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi**

**Tel: 223-81-99,  
0(371) 230-83-10**